

## Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi



# 2018 yilning yanvar – noyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami 2 142,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 414,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi

19,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 %ni

tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 44,8 %i yoki 959,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 35,9 % yoki 768,2 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,4 %ni tashkil etdi.

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

**2 142,1 mlrd.so'm**

Yirik pudrat

tashkilotlari ulushi -

**19,3 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

**44,8 %**

Norasmiy sektor ulushi -

**35,9 %**

Yirik pudrat  
tashkilotlari

- hajmi - **414,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **123,0 %**


Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar

- hajmi - **959,4 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **107,8 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **768,2 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **94,4 %**

## Faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



o`tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,7 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi

ko`rsatkichga nisbatan 6,8 % punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 26,0 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,4 % punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,3 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

### Yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga

nisbatan 4,0 % punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 46,3 % (2,5 % punktga ko`payish) va norasmiy sektorning ulushi 52,2 %ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabrda faoliyat turlari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik pudrat tashkilotlari   
 ■ Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar   
 ■ Norasmiy sektor

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 63,7 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko`paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 36,3 % (0,6 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,2 % punktga kamaydi va 32,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 67,2 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,2 % punktga ko`paydi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiya va qurilish statistikasi**  
**bo`limi**

Nashr uchun mas`ul:  
 Aloqa telefoni:

**Sh.Gaipov**  
**(76) 223-07-15**